




A COMPARATIVE STUDY OF THE STORY 'THE MAN AND THE TREASURE' AND THE NOVEL 'THE ALCHEMIST'

Manzura Abdurakhmanova

1st-year student, Persian-English group
School of Iranian and Afghan Studies
Tashkent State University of Oriental Studies

O. Turdiyeva

Associate Professor, DSc,
School of Iranian and Afghan Studies, TSUOS
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Rumi, Paulo Coelho, Sufism, treasure, destiny, symbol, metaphor.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article is dedicated to a comparative analysis of Jalaluddin Rumi's "The Man and the Treasure" story from Masnavi-ye Ma'navi and Paulo Coelho's The Alchemist. The main goal of the article is to identify the deep connection between these two works and to reveal the authors' philosophical and moral views through plot structure and symbolic imagery. Rumi's "The Man and the Treasure" reflects the symbolic and philosophical essence of Sufi literature, while Paulo Coelho's The Alchemist, about the journey of the shepherd Santiago, explains the concept of destiny.

"ODAM VA XAZINA" HIKOYATI HAMDA "ALKIMYOGAR" ROMANINING QIYOSIY TADQIQI

Manzura Abduraxmanova

1-kurs fors-ingliz guruhi talabasi
"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

O. Turdiyeva

DSc, "Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi dotsenti,
TDSHU
O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Rumi, Paolo Koelo, tasavvuf, xazina, taqdir, ramz, ishora.

Annotatsiya: Mazkur maqola Jaloliddin Rumiyning “Masnaviye ma’naviy” asaridagi “Odam va xazina” hikoyati hamda Paulo Koeloning “Alkimyogar” asarlarini qiyosiy tahlil qilishga bagʻishlangan. Maqolaning bosh maqsadi ushbu ikki asarni qiyoslash orqali ular oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni aniqlash hamda syujet tuzilishi va ramziy tasvirlar orqali adiblarning falsafiy, axloqiy qarashlarini ochib berishdir. Rumi “Odam va Xazina”da, tasavvuf adabiyotining ramziy va falsafiy mohiyatini aks ettirgan boʻlsa, Paulo Koelo choʻpon Santyagoning sayohati haqidagi “Alkimyogar” asari zamirida taqdir tushunchasini izohlaydi.

СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ РАССКАЗА «ЧЕЛОВЕК И СОКРОВИЩЕ» И РОМАНА «АЛХИМИК»

Мансура Абдурахманова

Студентка 1 курса, группа фарси-английский

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

О. Турдиева

доцент, доктор наук,

Высшая школа иранистики и афганистики, ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Руми, Пауло Коэльо, суфизм, сокровище, судьба, символ, метафора.

Аннотация: Данная статья посвящена сравнительному анализу рассказа Джалаладдина Руми «Человек и сокровище» из Маснави-э Ма’нави и романа Пауло Коэльо «Алхимик». Основная цель статьи — выявить глубокую связь между этими двумя произведениями, а также раскрыть философские и нравственные взгляды авторов через структуру сюжета и символические образы. Рассказ Руми отражает символическую и философскую суть суфийской литературы, тогда как роман Пауло Коэльо, повествующий о путешествии пастуха Сантьяго, раскрывает понятие судьбы.

Maʼlumki, dunyoning koʻpgina yirik olimlari Rumi ijodini tadqiq va tahlil etganlar. Fors adabiyoti ixlosmandlari esa Rumiyning soʻnmas ijodidan bahramand boʻlib kelmoqdalar. Mavlono Rumiyning shoh asari, shubhasiz, “Masnaviye ma’naviy” asaridir. Bu asar yaratilganidan to bugunga qadar koʻplab olimlarning tadqiqot manbai boʻlib kelmoqda. Ushbu mashhur asarga bir qancha taʼrif-

u tavsiflar berilgan. Shu ta'riflardan biri turk shoiri, yozuvchisi va faylasufi Sezai Karakoç (1933-2021) tomonidan berilgan bo'lib, u Rumiyning "Masnaviye ma'naviy" asari haqida chuqur tadqiqotlar olib borgan va uning fikricha bu asar Qur'on Karimga asoslangan bo'lib, insonlarni Islomiy axloq va ma'naviyatga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Rumiyan ta'sirlangan, uning ijodidan ilhomlangan yozuvchilardan biri butun dunyoga tanikli braziliyalik adib Paulo Koelodir. "Paulo Koelo asarlarini tushunish, o'rganish va talqin qilish uchun eng avvalo Tavrot, Injil, Zabur, Qur'on haqiqati, alomati, ramzi va falsafasidan xabardor bo'lish zarur.

Jaloiddin Rumi ruhiy murabbiy, ma'naviy ustoz, shoir va Islom huquqshunosi sifatida olamga tanilgan XVIII asrning bebaho gavhari edi.

Rumiyning hayot yo'li bilan tanishish, uning asarlarini kengroq tushunishga yordam beradi. U Balxda (Afg'oniston) 1207-yil 30-sentyabrda tug'ilgan. Otasi Bahouddin Valad nufuzli Islom olimi bo'lib, "Olimlar Sultoni" degan unvonga ega edi. Siyosiy bosim va Mo'g'ullar bosqini xavfi tufayli Valad oilasi Balx shahridan chiqib ketdi. 10 yil davom etgan bu hijrat ularni Konyaga olib keldi. Rumi otasidan tasavvuf va Islom ta'limotini (ilohiyot va fiqh) o'rgandi, bir qancha ilm-u irfon egalari, xususan Farididdin Attor bilan uchrashdi. Burhonuddin Termiziy, Bahouddin Valadning shogirdi hisoblanib, ustozining vafotidan so'ng Rumiyni 9 yil ruhiy kamolot yo'lida tarbiyalaydi. Uni Halab va Damashqda olim va so'fiylardan ta'lim olishini qo'llab-quvvatlaydi. Termiziy o'limidan so'ng, 1244-yil Konyada Rumi va Shams Tabriziy uchrashdilar. Shams Rumiyning tasavvufga bo'lgan qarashlarini tubdan o'zgartirgan, uni ilmiy va an'anaviy diniy ta'limdan ko'ra ichki ma'naviy yuksalishga ko'proq e'tibor qaratishga undagan. Rumi Shams bilan tanishgandan keyin, an'anaviy ta'limot, va'z-nasihatlardan uzoqlashdi va ichki dunyosi bilan ishlay boshladi. U "Samo" (aylanib zikr qilish) kabi amaliyotni boshladi, bu esa o'sha davrning diniy tartibiga to'g'ri kelmas edi. Shams va Rumiyning munosabati shayx-murid munosabatlaridan farq qilardi. Oddiy so'fiy ta'limotida shayx ustoz bo'lib, shogird esa unga to'liq bo'ysunadi. Ammo Shams va Rumi birgalikda ruhiy kamolotga intilishgan va ularning qay biri shayx, qay biri murid ekanligi aniq emas edi. Ularning bu qadar yaqinligi boshqa muridlar orasida nozorilik keltirib chiqardi, oqibatda Shams Konyani tark etdi. Shams Rumiyning ta'limoti va she'riyatiga katta ta'sir ko'rsatdi va u o'zining eng yirik asarini – "Divone Shamsi Tabriziy" deb nomladi.

Keyinchalik, Rumi o'z shogirdi Husamuddin Chelebiy bilan do'st bo'ldi va yana va'z, dars berishni davom ettirdi. Husamuddin Rumiyni "Masnaviy"ni yozishga ilhomlantirdi. U Rumiyan so'fiylik yo'lini tushuntiradigan she'riy kitob yozishni so'radi, bu kitob so'fiylik qoidalarini o'rgatish uchun qo'llanma bo'lishi kerak edi. Ungacha so'fiylik bo'yicha ta'limotlar asosan, Attorning kitoblari orqali o'rgatilgan edi.

Rumiy nafaqat tasavvufchi olim, balki o'z asarlarining sifati va miqdori jihatidan juda samarali shoir va yozuvchi edi. Rumiy asarlarida hind, fors va devon adabiyoti ta'siri seziladi.

Taxminan 50 ming misradan iborat bo'lgan va 6 jildidan tashkil topgan "Masnaviy"da hikoyatlar, masallar, Qur'on oyatlari va hadislar ko'p uchraydi.

Dunyoning eng mashhur yozuvchilaridan biri Paulo Koelo 1947 yil 24-avgustda Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida tug'ilgan. Ijod olamiga qo'shiqchi shoir, jurnalist, ssenarist sifatida kirib kelgan. Alkimyo bilan ham ma'lum muddat jiddiy shug'ullangan. U o'zini yozuvchi va mag – sehrGAR deb hisoblaydi. Jahonning 120 mamlakatida chop etilgan "Alkimyogar" (1988) romani unga katta shuhrat keltirdi.

Ushbu maqola yuqoridagi ikki adib – Rumiy va Koeloning ijodida katta ahamiyatga ega ikki asar – "Masnaviy"ning bir hikoyati va "Alkimyogar"ning qiyosiy tahliliga bag'ishlanadi.

"Masnaviye ma'naviy"ning 6-kitobida "Odam va xazina" joy olgan. Ushbu hikoyatda ruhiy kamolotga erishish va inson o'zligini topish masalasi har qanday moddiy boylikdan ustun ekanligi g'oyasi yotadi.

"Odam va Xazina" hikoyatining syujeti quyidagicha:

حکایت آن شخص که خواب دید که آنچه می طلبی از یسار به مصر وفا شود. آنجا گنجی است در فلان محله در فلان خانه، چون به مصر آمد کسی گفت من خواب دیده ام که گنجی است به بغداد در فلان محله در فلان خانه. نام محله و خانه ی این شخص بگفت. آن شخص فهم کرد که آن گنج در مصر گفتن جهت آن بود که مرا یقین کنند که در غیر خانه ی خود نمی باید جستن ولیکن این گنج یقین و محقق جز در مصر حاصل نشود.

Bir odamga katta meros qolgandi. Biroq "oson kelgan, oson ketar"; deganlaridek, tadbir bilan sarflamadi, qisqa paytda butun boshli merosni tugatdi. Qo'lida nima bo'lsa, yeb bitirdi.

Hech vaqosi qolmagach, Allohga yukindi, har oqshom ko'z yosh to'kib duo qilardi: "Ey Robbim, menga boylik berding, mulk berding. Hozir esa ular qo'limdan ketdi. Aybimni bilaman. Xato qidim. Menga yordam qil, meni qutqar bu illatdan. Yo marhamat qilib bir tirikchilik ber yoki jonimni ol".

Kunlar, oylar yolvorishlar bilan o'tdi. Nihoyat, bir kecha tush ko'rdi. Bir ovoz unga: "Sen Misrga bor, o'sha yerda omading chopadi u yerda boy bo'lasan. Misrda topadigan xazinang seni kutyapti" derdi.

Odam uyg'onganda sevinchdan telba bo'layozdi. Darhol Misrga ketishga hozirlik ko'rdi...

Necha kun Misrda och, suvsiz kezib yurdi. Na xazina, na birorta qo'lidan tutgandan darak bo'lmadi. Chorasizlikdan tilanchilik qilishga qaror qildi, ammo uxlayotganda: "Oqshom tushgach, tilanchilik qilaman, qorong'uda hech kim meni tanimaydi", deb o'yladi. Qorong'uda mahalla ichlarida kezdi. Endi qo'l ochishga chog'langan ediki, mahalla mirshabi paydo bo'ldi. Mirshab uni o'g'ri deb o'ylab, yoqasidan tutdi. Ham sudrab, ham urardi. Odam:

— Urma to'g'risini aytaman, deb yolvora boshladi.

Mirshab:

— Yaxshi... begonaliging holingdan aniq. Tushuntir, yo‘qsa hamma o‘g‘rilarning alamini sendan olaman, dedi.

Odam hikoyasi qanday bo‘lsa, shunday tushuntirdi, oxirida esa:

— Mana men na o‘g‘riman, na bir zolim. Xazina ilinjida Misrga kelgan, g‘arib bir Bag‘dodlikman, deb so‘zlarini tugatdi. Mirshab ishondi. Kulib aytdi:

— Senga ishonaman, sen o‘g‘ri emassan, ammo g‘irt axmoqsan. Men ancha yillardan beri “Bag‘dodda falon mahalladagi falon uyda xazina ko‘milgan”ligi haqida tush ko‘raman. Lekin, hatto, o‘rnimdan qimirlamadim. Sen bir tush ko‘rib, bu yerlargacha kelibsan. Sen axmoqning, tentakning birisan. Qani ket! Boshqa bu yerlarda ko‘rinma!

Odam hayron qolgandi. Mirshabning «Bag‘dodda falon mahallada falon uyda», degan joyi o‘zining uyi edi. O‘z o‘ziga: «Demak men xazina ustida o‘tirganim holda faqirlikdan nolib yig‘lar ekanman», deb Allohga shukr aytdi.

“Alkimyogar” romanining qisqacha syujeti Rumiyning hikoyatining aynan o‘zi. Biroq Koelo bu asarida postmodernizm metodini qo‘llab, Rumi hikoyatiga yangicha ruh, yangi nafas bag‘ishlab, o‘quvchiga taqdim etdi. Asar quyidagi fikrlar bilan boshlanadi:

“Xudo bu dunyodagi har bir bandaning yo‘lini alomatlar bilan belgilab qo‘ygan, xazinaga yo‘lni o‘sha alomatlar orqali topib borasan. Alomatlarning faqat sen uchun yozilganlarini o‘qiy olmog‘ing darkor.”

“Alkimyogar” asarining bosh qahramoni Santyago ismli cho‘pon sirli tush ko‘rdi va “lo‘li” kampirdan uning ta‘birini bilib oldi. Santyago tushida notanish bola kelib, uni Misr ehromlari oldiga olib borgani va “Agar yana shu joylarga yo‘ling tushsa ko‘milgan xazinani topasan” deganini bayon qilaganida, kampir Xudo u bilan Umumbashar Tilida gaplashganini ta‘kidlaydi. Santyago ehromlarni qidirib yo‘lga tushishi- o‘sha yerdan o‘z xazinasini topishi kerak edi. O‘z xazinasiga yetishish yo‘lida qahramonimiz shoh Maliksiddiq, qaroqchi, arab sovutchisi, ingliz olimi, Alkimyogar va sahro qizi Fotimaga yo‘liqadi. Misr ehromlariga yetib borish uchun juda ko‘p zahmat chekadi, safarining ba‘zi vaqtlarida Santyagoning qalbini ikkilanish va afsuslanish chulg‘ab olsa, roman o‘z nihoyasiga yetar ekan unda sakinat va Olam Ruhi bilan birlik hislarini tuyishini va o‘z xazinasiga yetishganini ko‘ramiz.

Ikki asarni o‘qib, ulardagi o‘xshashliklarni quyidagi jadval misolida ko‘rib chiqamiz:

“Odam va xazina ”	“Alkimyogar”
Tush motivi: Bog‘dodlik kishi o‘z xazinasini qayerda joylashganligini tushida ko‘radi	Tush motivi: Cho‘pon Santyago xazina qayerda joylashganligini tushida ko‘radi
Makon birligi: Xazina Misrda joylashgan	Makon birligi: Xazina Misr ehromlari ostida joylashgan

Qahramonga yo‘liqadigan personaj – Mirshab	Qahramonga yo‘liqadigan personaj – Santyogoning boshlig‘i arab chinnivorlar sotuvchisi
Mirshabning tushi – Bog‘doddagi falon mahalladagi, falon uyda xazina bor degan tushlarni ko‘rardi, ammo alomatlarga e‘tibor bermay, o‘z taqdiri yo‘lida bormay hali ham Misrda edi.	Chinnivorlar sotuvchisining orzusi – Makkaga borishni, u yerda ibodatlarini ado qilishni, farz amallar bilan Robbisiga yetishishni chin dildan xohlardi, ammo Sanytago kabi ana o‘sha orzu-maqсад bilan yashamas, alomatlarga befarq edi.
Safardagi qiyinchiliklar – och qolishi, tilanchilik qilishga rozi bo‘lishi	Safardagi qiyinchiliklar – moddiy qiyinchilikda qolishlari, qaroqchilar tomonidan tunalishi, och qolishi
Ruhiy kamolot, poklanish, o‘zlikni topish	Ruhiy kamolot, poklanish, o‘zlikni topish
Asar yakuni – uyga qaytishi	Asar yakuni – asl xazina nima ekanligini anglab, uyga qaytishi

Bu ikki asar ma’naviy-axloqiy o‘xshashliklarga ham ega. Asarlar zahirida ruhiy poklanish, o‘zlikni anglash, borliqni tushunish va birlik, birlashish kabi ma’naviy, axloqiy hamda falsafiy fikrlar jamlangandir.

Moddiyat asl xazina emas, balki o‘zlikni topish muhimligi, taqdir bitgan yo‘ldan yurish va unga rozi bo‘lish insonga sakinat, ichki xotirjamlik berishi haqida so‘zlovchi bu ikki asarning g‘oyaviy jihatdan birligi oydinlashadi.

Bu asarlarning bir-biriga o‘xshashligi, Paulo Koeloning Rumiylar asarlarini sevib mutolaa qilishi va uni ustoz deb bilishidan darak beradi. Shuni aytish joizki, dunyoga mashhur “Alkimyogar” asari “Masnaviye ma’naviy” asaridagi bir bo‘lagi bo‘lgan “Odam va Xazina” hikoyatidan ta’sirlanib yozilgan.

“Alkimyogar” asari roman hisoblanib, “Odam va Xazina” hikoyatidan hajm jihatdan katta va voqealar rivoji qisman turlicha bo‘lib ko‘rinsa ham, ma’no, unda olg‘a surilgan g‘oya birdir. Shuni qo‘shimcha qilish kerakki, Paulo Koelo “Alkimyogar” asariga faqat “Odam va Xazina” hikoyatidagi “xazina” tushunchasini emas, balki Rumiyning butun “Masnaviy”ning asosi bo‘lgan “Vahdat ul-vujud” ta’limotini ham singdirib ketgan.

Quyida keltirilgan “Alkimyogar” romanidan olingan iqtiboslar Koeloning Rumiylar g‘oyalaridan ilhomlanganini ko‘rsatadi:

Sen kim bolishingdan va nima bilan shug‘ullanishdan qat’iy nazar, biror narsani chin dildan istasang, o‘shanga, albatta, yetishasan, chunki bunday istak Olamning Ruhida dunyoga kelgan bo‘ladi. Sen Yer yuzida xuddi ana shuning uchun yaratilgansan. (Bog‘dodlik odam xazinani xohladi, darhaqiqat u asl xazinani topish uchun yaratilgandi)

Olamda hamma narsa bir butun. Borlik bir butunlikdir. Olamdagi jamiki narsalar-yakka-yu yagona narsaning turfa ko‘rinishlari ekan. Yoki Romandagi Alkimyogar so‘zlariga diqqat qilaylik: “Dunyo bu Allohning zohiriy bir qismi xolos. Alkimyo esa ruhiy komillikni-botiniy ashyoni zohiriy ashyoga aylantiradi.” Bu g‘oya ham Rumiyning “Vahdat ul-vujud” ta’limotidandir.

“Agar hammasiga Xudo rahnamolik qilayotgan bo‘lsa, u mening ham adashishimga yo‘l qo‘ymaydi. Bu fikr ham so‘fiylik ta’limotidagi qarashlardan biri hisoblanadi.

Xazina qayerda bo‘lsa, qalbing ham o‘sha yerda. Rumiyning ta’limotidan ma’lumki, ichki, ruhiy, botiniy yuksalish muhim va u qalbning pokligi bilan bo‘ladi. Bu mirsalar ham “Alkimyogar” asaridagi Rumiya tegishli g‘oyalardan biridir.

Romanning muqaddimasidan oldin “J.ga bag‘ishlanadi. Buyuk Yaratish sirini kashf etgan alkimyogarga” degan epigrafga ko‘zimiz tushadi. “J” kim? – degan savol tug‘iladi. Bizningcha, katta ehtimol bilan bu Jaloliddin Rumiidir. Paulo Koelo "Syrian Forward Magazine" jurnaliga bergan intervyusida, "Alkimyogar"ni yozishda Rumiya ta'siri bo‘lganini ta’kidlab aytgan.

"Romanlaringizni o‘qiyotganda, unda so‘fiylikning kuchli ta'sirini sezish mumkin. Hayotingizga ta'sir ko‘rsatgan va asarlaringizda aks etgan ma’lum bir so‘fiy bormi? – degan savolga Paulo Koelo shunday javob bergan:

— Ha, so‘fiylik hayotim davomida menga juda katta ilhom berdi va men bu an’anaga ba’zi kitoblarimda, masalan, "Alkimyogar"da va yaqinda chop etilgan "Zahir"da murojaat qilaman. Albatta, Rumiya birinchi bo‘lib yodimga tushadi. Uning ta’limotlari va qarashlari nihoyatda nozik va aniq."

“Men kirishna, buddaviylik, yoga falsafasi, xullas dinlarning hammasi bilan ham shug‘ullanib ko‘rdim” . Shubhasiz, bu gaplarni bayon qilgan Koelo Islom diniga ham qiziqqan va tasavvuf, tariqat bilan ham shug‘ullangan.

Bu tadqiqot uchun “Alkimyogar” asarining Aziz Said qalamiga mansub tarjimasi mutolaa qilindi. Tarjimonning asar oxirida yozgan “Santayago yo‘li so‘fiylikdagi tariqat yo‘li singari o‘zidan boshlanib o‘zida nihoya topishi...” fikrlariga qarasa, “Alkimyogar” asari darhaqiqat, Rumiya ta’limotidan to‘yingan roman ekanligini anglab yetamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kabirova N.K. Rahnavard Zaryob hikoyalarining poetikasi. Monografiya. Toshkent-2021.
2. Spujmay Zaryob hikoyalarida oilaviy munosabatlar va ayol kechinmalarining badiiy ifodasi. Toshkent. 2023. Sharqshunoslik. Ilmiy jurnali. №1.
3. Герасимова А., Гирс Г. Литература Афганистана. —М.: ИВЛ, 1963.
4. Гирс Г.Ф. Современная художественная проза на пушту в Афганистане. —М.: 1958.
5. کبرا مظہری ملورد. کال ۱۳۶۶. پښتني ليکوالي او شاعراني
6. انځور زرین، دپښتو لنډي کيسی يو لنډ تاريخی جاج، «کابل» مجله، ۱۳۶۳ کال، ۱۰ گڼه، ۵۸-۷۳ مخوبه